



O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORT SALOHIYATINI KENGAYTIRISH YO'LLARI

Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot va menejment kafedrası assistenti

E-mail: kb.yusupov@tsue.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17149359>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport bozorlarini kengaytirish jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mavjud muammolar, jumladan, xalqaro sifat standartlariga moslashishdagi qiyinchiliklar, logistika infratuzilmasidagi cheklovlar hamda kichik fermer xo'jaliklarining moliyaviy imkoniyatlari yetishmasligi asosiy to'siqlar sifatida qayd etilgan. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, raqamli savdo platformalari va davlat qo'llab-quvvatlovi eksport hajmini oshirish omillari sifatida qayd etilgan. Natijalar eksportning barqaror o'sishini ta'minlash hamda O'zbekistonning global raqobatbardoshligini mustahkamlash imkonini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi eksporti, O'zbekiston bozorlarni kengaytirish, sifat standartlari, logistika infratuzilmasi, raqamli savdo, diversifikatsiya, raqobatbardoshlik.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport bozorlarini kengaytirish iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanib, u nafaqat xorijiy valyuta tushumini ko'paytiradi, balki mahalliy fermer xo'jaliklarining daromadini ham oshiradi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yildagi "Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3978-sonli Qarori ishlab chiqilganligi ham qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini rivojlantirish va ularni global bozorga chiqarishning strategik ahamiyatini ta'kidlaydi. O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jaligi sohasi Yalpi Ichki Mahsulotning (YIM) sezilarli qismini tashkil etib, 2022-yilda eksport hajmi tashqi daromadlarning 8,4 foizini ta'minlagan. Shu bilan birga, meva va sabzavot eksporti bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar ishlab chiqarish va eksport jarayonlaridagi asosiy to'siqlar – sifat standartlarining yetarli emasligi hamda logistika infratuzilmasidagi cheklovlar bozor ulushini kamaytirayotganini ko'rsatadi. Biroq mazkur muammolarni bartaraf etish orqali eksport hajmini sezilarli darajada oshirish imkoniyati mavjudligi aniqlangan [1].

Qishloq xo'jaligi sektorining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilgan ilmiy ishlar O'zbekistonning istiqbollari eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni





diversifikatsiya qilish va yangi bozorlarni o'zlashtirish orqali mustahkamlanishini ko'rsatmoqda. Sektorning YIMdagi ulushi 25–30 foizni tashkil etgani bois, eksportni kengaytirish ushbu sohaning o'sish sur'atlarini yanada tezlashtirishi mumkin [2]. Eksport strategiyalaridan biri sifatni oshirish va xalqaro standartlarga moslashish bo'lib, bu Rossiya, Xitoy va Yevropa Ittifoqi kabi yirik bozorlarga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, kichik fermer xo'jaliklari uchun mazkur jarayon yuqori xarajatlarga sabab bo'lishi mumkinligi tufayli davlat tomonidan subsidiyalar hamda sertifikatlash dasturlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi [3]. Tadqiqotlar zamonaviy sug'orish tizimlarini joriy etish hosildorlikni 40 foizgacha oshirishi mumkinligini ko'rsatadi, bu esa eksport hajmining ortishiga xizmat qiladi va O'zbekistonning quritilgan meva, anor kabi mahsulotlarining global bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, infratuzilmani rivojlantirish xalqaro hamkorlikni talab etadi [4].


Pandemiya sharoitida amalga oshirilgan tadqiqotlar elektron savdo platformalari va raqamli marketingdan foydalanish yangi bozorlarni o'zlashtirish imkonini berishini tasdiqlagan, chunki 2024-yilda meva va sabzavotlar eksporti 157,2 ming tonnaga yetib, oldingi yilga nisbatan 11,8 foizga o'sishga erishilgan [5]. Fermerlarning eksport bozorlariga kirish qarorlarini o'rgangan taqqoslama tadqiqotlar (Armaniston va O'zbekiston misolida) kichik va o'rta fermerlarning eksport salohiyatini oshirish uchun moliyaviy yordam va bozor tahlili zarurligini, shuningdek, 75 foiz fermerlar sifat standartlariga rioya qilish orqali yangi bozorlarga chiqishi mumkinligini ko'rsatadi, biroq raqobat hamda normativ talablar bu jarayonni murakkablashtiradi.

Jahon bankining O'zbekiston qishloq xo'jaligi xarajatlari bo'yicha o'tkazgan tahlillari urug' va ko'chatlar sifatini yaxshilash eksport bozorlarida ulushni saqlab qolish va oshirishning muhim sharti ekanini ta'kidlaydi. Shuningdek, logistika tizimini rivojlantirish hamda sovuq zanjirni kengaytirish eksportning samaradorligini oshiradi, ammo bu jarayon davlat byudjeti va xususiy investitsiyalardan sezilarli mablag' talab etadi. Umuman olganda, O'zbekiston oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini kengaytirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mumkin, shu jarayonda kichik fermerlar uchun qo'llab-quvvatlash dasturlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish eksport salohiyatini yanada kuchaytiradi hamda global raqobatbardoshlikni oshiradi.





O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil yakuni bo'yicha bergan hisobotiga ko'ra, 2024- yil yanvar-sentabr oylarida 1 495,2 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 11,8 % yoki 157,2 ming tonnage ko'paygan. Shuningdek, 2024- yil yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 1 045,5 mln AQSH dollari qiymatidagi mevasabzavot eksport qilingan. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 25,8 % ga ko'payib va jami eksportdagi ulushi 5,3 % ni tashkil etgan. Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (44,7 %), Qozog'iston (14,1 %), Pokiston (14,1 %) hamda Afg'oniston (7,3 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



1-rasm. Umumiy qishloq xo'jaligi eksporti va importi (2020–2024)

Tahlil natijalariga ko'ra, 2020–2024 yillarda O'zbekistonning qishloq xo'jaligi tashqi savdosi sezilarli o'sish ko'rsatgan. Eksport hajmi 1,0 mlrd AQSh dollaridan 2,17 mlrd AQSh dollarigacha oshib (+117%), asosan meva-sabzavot (1,5 mlrd AQSh dollari, 2 mln tonna) va paxta tolasi (4,5 mlrd AQSh dollari ulushi) hisobiga shakllangan hamda tashqi daromadlarning 8,4 foizini ta'minlagan. Import esa 1,1 mlrd AQSh dollaridan 3,69 mlrd AQSh dollarigacha ko'tarilib (+235%), don mahsulotlari va mineral o'g'itlarga bo'lgan ehtiyojning ortishini aks ettiradi. Natijada, 2024-yilda qariyb 1,5 mlrd AQSh dollari miqdorida savdo taqchilligi yuzaga kelgan. Shu bilan birga, eksportning barqaror o'sishi 2025-yilda 3,5 mlrd AQSh dollari miqdoridagi eksport maqsadlariga erishish imkoniyatlarini oshiradi, biroq kelajakda diversifikatsiya va logistika infratuzilmasini rivojlantirish muhim vazifa bo'lib qolganligini ko'rish mumkin.



Xulosa

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport bozorlarini kengaytirish O'zbekiston iqtisodiyotidagi muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, bu jarayon xorijiy valyuta oqimini oshirish, mahalliy fermerlarning farovonligini yaxshilash va xalqaro bozorda o'z o'rnini mustahkamlash imkonini beradi, chunki eksport nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki qishloq xo'jaligi sektorining global raqobatbardoshligini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mahsulot sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish va logistika tizimini modernizatsiya qilish orqali eksport hajmini sezilarli darajada oshirish mumkin, ammo kichik va o'rta fermer xo'jaliklarining moliyaviy imkoniyatlari cheklanganligi va xalqaro bozorlarning qat'iy talablari jarayonni murakkablashtiradi. Shu sababli, davlatning eksportni qo'llab-quvvatlash dasturlari, shu jumladan subsidiyalar va raqamli texnologiyalarni joriy etish eksport bozorlarini kengaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tahlillar asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini kengaytirish bo'yicha quyidagi takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Davlat tomonidan eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar uchun subsidiyalar hajmini oshirish, bu kichik fermer xo'jaliklarining xalqaro sifat standartlariga moslashish xarajatlarini qisqartirishga xizmat qiladi.
2. Raqamli savdo platformalarini rivojlantirish, chunki ushbu mexanizm yangi bozor segmentlariga kirishni osonlashtiradi.
3. Xalqaro savdo ko'rgazmalarini tashkil etish, xususan, 2025–2026 yillarda Xitoy va Yevropada ko'rgazmalar o'tkazish orqali xorijiy hamkorlikni kuchaytirish.
4. Logistika tizimini va sovuq zanjir infratuzilmasini modernizatsiya qilish, bu esa mahsulot sifatini saqlash hamda transport xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.
5. Fermer xo'jaliklari uchun eksport bozorlarini tahlil qilish dasturlarini joriy etish, chunki mazkur chora ularning raqobatbardosh bozor segmentlariga kirishini yengillashtiradi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport salohiyatini rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish lozim:

1. Xalqaro sifat standartlariga (ISO, GlobalGAP) moslashish bo'yicha o'quv va malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish, bu mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshiradi.
2. Eksportga yo'naltirilgan xo'jaliklarni imtiyozli kreditlar bilan ta'minlash, bu ularning investitsiya faoliyatini rag'batlantiradi.





3. Raqamli marketing va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni kengaytirish, chunki bu eksport mahsulotlariga bo'lgan talabni oshirishda samarali hisoblanadi.

4. Zamonaviy sug'orish texnologiyalarini joriy etish, bu hosildorlikni oshirish va mahsulot sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish, chunki bu iqtisodiy xavflarni kamaytirib, yangi bozor imkoniyatlarini ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Khulkar Karimova. Agro-Export in Uzbekistan: Challenges and Recommendation. Xalqaro munosabatlar, 2023, N 1-2 (93,94).
2. Mansur Eshov, Lochinbek Amirov, and Mavluda Askarova. Development of the agricultural sector and its importance in Uzbekistan. E3S Web of Conferences 244, 03014 (2021).
3. Sayyora Khalmirzayeva. Agricultural policy reforms in Uzbekistan to increase the export share. E3S Web of Conferences 497, 03054 (2024). <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202449703054>
4. Muzhda Parwoni. The Place of Agricultural Products of Uzbekistan in The World Market. Xalqaro nordik universiteti jurnali.
5. Umidjon Abdusamat Ugli Dadabaev, Abduvali Abdurakhimovich Isadjanov, Zokir Rustamovich Sodikov., va boshqalar. Ways to increase the export potential of agricultural products of Uzbekistan in a pandemic. International Journal of Modern Agriculture ISSN: 2305-7246 Volume 10 Issue 2, Month 2021.
6. O'zbekiston Respublikasi Qishloq Xo'jaligi Vazirligi. 2024-yil yanvar-sentabr oylari bo'yicha Qishloq xo'jaligining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.
7. <https://tradecouncil.org/uzbekistan-sets-new-agricultural-export/>
8. <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-agricultural-sectors>.

